https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Jumayev G‘ayratjon Ismatullo o‘g‘li
Tayanch doktorant
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
E-mail: gayratjon_jumayev@tsuos.uz
https://orcid.org/0000-0001-6742-587X

SULTON IBROHIM MIRZO – AMIR TEMURNING FARZANDLARIDAN BIRI: MANBALAR VA TALQINLAR

Annotatsiya

Ushbu maqola XIV asrning buyuk hukmdori Amir Temurning oilaviy nasl-nasabi, xususan, uning o‘g‘il farzandlari haqida tadqiqotdir. Maqolada Temurning mashhur to‘rt o‘g‘li – Muhammad Jahongir, Umarshayx, Mironshoh va Shohrukh Mirzolar haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, ularning tug‘ilish yillari, onalari, hayot yo‘llari, jangovarliklari va farzandlari haqida tarixiy manbalarga asoslangan faktlar bayon etilgan. Shuningdek, kam ma’lum bo‘lgan o‘g‘illari Jahonshoh va Sulton Ibrohim Mirzolar haqida yangi ma’lumotlar taqdim etiladi. “Muiz ul-ansob”, “Zafarnoma” va “Habib us-Siyar” kabi asarlar asosida, amirzodalarining erta vafotlari va Temuriylar saltanatidagi roli muhokama qilinadi. Tadqiqot metodologiyasi yozma manbalar va nasabnomalarga tayanadi, Amir Temurning oilaviy hayotini va merosini yoritishga qaratilgan. Maqola temuriyshunoslikka qo‘shimcha hissa qo‘shadi, kam o‘rganilgan farzandlar haqida yangi izlanishlarga undaydi..

Kalit so‘zlar

Amir Temur, Jahongir Mirzo Jahonshoh Mirzo, Shuhrux Mirzo, Ibrohim Mirzo, Samarqand, Temuriylar sulolasi, Temuriylar davlati.

SULTAN IBRAHIM MIRZA – ONE OF THE SONS OF AMIR TIMUR: SOURCES AND INTERPRETATIONS

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Abstract

This article is a study of the family lineage of the great 14th-century ruler Amir Timur, particularly his sons. The article examines Timur's four famous sons – Muhammad Jahangir, Umar Shaykh, Detailed information is provided on Miran Shah and Shah Rukh Mirza, presenting historical facts based on sources about their birth years, mothers, life courses, military campaigns, and children. Additionally, new information is presented about their lesser-known sons, Jahanshah and Sultan Ibrahim Mirzas. Based on works such as “Muiz al-ansab,” “Zafarnama,” and “Habib al-Siyar,” the early deaths of the amirs and their role in the Timurid dynasty are discussed. The research methodology relies on written sources and genealogies, aiming to illuminate the family life and legacy of Amir Timur. The article contributes to Timurid studies and encourages new research on the less-studied children.

Keywords

Amir Timur, Jahangir Mirza, Jahanshah Mirza, Shahrukh Mirza, Ibrahim Mirza, Samarkand, Timurid dynasty, Timurid state.

СУЛТАН ИБРАГИМ МИРЗА – ОДИН ИЗ СЫНОВЕЙ АМИРА ТИМУРА: ИСТОЧНИКИ И ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Аннотация

В данной статье исследуется родословная великого правителя XIV века Амира Тимура, в частности его сыновей. В статье рассматриваются четыре известных сына Тимура – Мухаммад Джахангир, Умар Шейх, Миран Шах и Шах Рух Мирза. Приводятся подробные сведения об их годах рождения, матерях, жизненном пути, военных походах и детях, основанные на исторических источниках. Кроме того, представлена новая информация об их менее известных сыновьях, Джаханшахе и Султане Ибрагиме Мирзах. На основе таких работ, как «Муиз уль-ансаб», «Зафарнама» и «Хабиб ус-Сияр», обсуждаются ранняя смерть эмиров и их роль в династии Тимуридов.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Методология исследования опирается на письменные источники и генеалогии и направлена на освещение семейной жизни и наследия эмира Тимура. Статья вносит вклад в изучение Тимуридов и стимулирует новые исследования о менее изученных детях.

Ключевые слова

эмир Тимур, Джахангир Мирза, Джаханшах Мирза, Шахрух Мирза, Ибрагим Мирза, Самарканд, династия Тимуридов, государство Тимуридов.

KIRISH

Sohibqiron Amir Temur – XIV asrning eng kuchli davlatini qura olgan hukmdor bo‘lib, u buyuk sarkarda, davlat arbobi va temuriylar saltanati asoschisidir. Tarixda Amir Temur (1336-1405), nafaqat harbiy sarkarda, ilm-fan, madaniyat homiysi, davlat quruvchi hukmdor balki, o‘z nomi bilan atalgan hukmron xonadon, sulolaning ham asoschisi sifatida mashhurdir. Temuriylar davlati musulmon Sharqida o‘rta asrlarda hukm surgan davlatlardan katta farq qilmaydigan ma’muriy tuzulish, qonun va qoidalariga ega edi. O‘rdu tuzilshi, davlat tashkiloti, devon, dargoh, borgoh, haram kabi tuzilmalarning tartiboti asriy an’analari natijasida shakllangan edi. Sharq an’analari, turkiy odat va islom shariatiga ko‘ra. Sohibqironning to‘rt asosiy xotuni va ko‘plab kanizaklari bo‘lganligi tarixiy manbalardan ma’lum. Uning ushbu xotun, beka, og‘acha, g‘uma, g‘unchachi, kanizak va joriyalaridan juda ko‘p farzandlari bor edi.

Amir Temur hayoti, faoliyati, nasl-nasabi, farzandlari haqida Sohibqiron davrida va undan keyingi davrlarda yaratilgan temuriylar tarixiga bag‘ishlangan turli asarlar, zafarnomalar hamda nasabnomalarda Sohibqironning farzandlari haqida ayrim ma’lumotlar qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ko‘plab tarixiy yozma manbalar hamda tadqiqotlarda Amir Temurning eng mashhur to‘rtta o‘g‘li haqida talaygina ma’lumotlar bayon etilgan. Masalan, Nizomiddin Shomiy, G‘iyosiddin Ali Yazdiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Muiniddin Natanziy, Safiuddin Masihiy, Xofizi Abru, Tojiddin Salmoniy, Ja’fariy, Mirxond,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Xondamir kabi muarrixlarning asarlarida Temurning to‘rt farzandi va ularning o‘g‘illari to‘g‘risida yetarlicha bilgilar zikr etilgan, chunki ular Temuriylar saltanatini boshqarishda muhim rol o‘ynagan edilar.

Ustoz olim, marhum Turg‘un Fayziyev ham “Temuriylar shajarasi”[1] asarida ham ushbu to‘rt o‘g‘ilning avlodlari silsilasini qayd etib o‘tadi. Ammo Amir Temurning boshqa o‘g‘il farzandlari haqida ma’lumotlar anchayin kamyobdir. U ham bo‘lsa, asosan, “Muiz ul-ansob”[2] (Nasabnoma) asarida keltirilgan ma’lumotlardir. Buning sababi nasabnomada keltirilganidek, mashhur to‘rt o‘g‘illardan boshqa o‘g‘il farzandlarning nisbatan erta vafot etishi bilan bog‘liq.

MUHOKAMA

Amir Temurning o‘g‘il farzandlari:

Muhammad Jahongir Mirzo (1356-1376) (امیرزاده محمد جهانگیر) – Sohibqiron Amir Temur ning katta o‘g‘li. 1356-yilda tug‘ilgan. Onasi Turmush Og‘odir. Amir Temurga o‘xshab bir so‘zli, qat’iyatli va jasur bo‘lgan. Amir Temur to‘ng‘ich o‘g‘liga alohida e’timod qo‘ygan edi, uni taxtining vorisi sifatida ko‘rar edi, janglarda faol qatnashgan[3]. 1373-yilda Xorazm hokimi qo‘ng‘irot urug‘idan Husayn So‘fining ukasi Oq So‘fining qizi, O‘zbekxonning nabirasi Suyun Beka (Sevin Beka, Xonzoda)ni o‘z nikohiga oladi. 1374-yilda Ilyos Yasuriy (Yassavuriy)ning qizi Baxt Mulk Og‘oga uylanadi. Xonzodadan Muhammad Sulton, Baxt Mulk Og‘odan Pir Muhammad ismli farzand ko‘radi. 777/1376-yilda Samarqandda yigirma yoshida kasallikdan vafot etadi. Uni Amir Temur Shahrisabzda dafn ettiradi[4].

Umarshayx Mirzo (1356-1393) (عمر شیخ بهادر) – Amir Temurning ikkinchi o‘g‘li. 1356-yilda tug‘ilgan. Onasi To‘lin (Tuman Og‘o) Og‘odir. “Habib us-Siyar” asarining Isfahon fixristida (توملون آغا که والده میرزا عمر شیخ بود) “Tumelun Og‘oke

[1] **Файзиев Т.** Темурийлар шажараси. / Масъул муҳаррир А.Самад. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – 184 б.
[2] **Му'изз ал-ансаб** (Прославляющее генеалогии). / Введение, перевод с персидского языка, примечания, подготовка факсимиле к изданию Ш. Х. Вохидова – Алматы: “Дайк-Пресс" 2006. – 119-120 б.
[3] **Файзиев Т.** Темурийлар шажараси. / Масъул муҳаррир А.Самад. – Тошкент: Ёзувчи, – Хазина. 1995. – Б. 35.
[4] **Хондамир Ғиёсиддин.** Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар: (Башар аҳли сийратидан хабар берувчи дўст) / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари Ж.Ҳазратқулов, И. Бекжонов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – Б. 88.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

volidayi amizoda Umarshayx bud.”[5] kabi yozilgan[6]. Amir Temurning yana bir mard, jasur, jangovar farzandidir. 1370-yilda 15-yoshida Amir Temurning Amir Husaynga qarshi kurashida jasorat ko‘rsatadi va oyog‘idan yaralanadi. Amir Temurning ko‘plab yurushlarida qatnashadi. Koshg‘ar va Forsni egallashga mutassadi qilib tayinlangan. Istaxr, Farak, Shahriyor qal’alarini egallagan.1393-yilda Harmotu qal‘asini zabt etish paytida bir tepalikka chiqib, qal’ani egallashni o‘rganayotgan amirzodaning bo‘yniga nogahoniy o‘q tegib vafot etadi. Vaqtincha Sherozda so‘ngra Keshda dafn etiladi. Xotinlari – Sevinch Qutlug‘ Og‘o Begim, Beka Mulk Og‘o Begim, Mulkat Og‘o Begim. Undan oltita o‘g‘il qolgan bo‘lib, kattasi Pir Muhammad Mirzo (Sheroziy) o‘sha paytda o‘n olti yoshda bo‘ladi. Rustam Mirzo, Iskandar Mirzo, Ahmad Mirzo, Saydi Ahmad Mirzo va Boyqaro Mirzo edi[7].

Mironshoh Mirzo (1366-1408) (ميرانشاه**) –** Amir Temurning uchinchi o‘g‘li. 1366-yilda tug‘ilgan. Onasi Menglibeka Og‘oyi Joni Qurboniydir. “Habib us-Siyar” asarining Isfahon fixristida (منكلى بيک آغا جونى قربانى كه والده اميرزاده ميرانشاه بود) “Menglibeka Og‘o Joni Qurboniyke volideyi amirzoda Mironshoh bud.” deb bayon qilingan. Mironshoh yoshligida jasur va yovga nisbatan shafqatsiz jangchi sifatida nom taratgan. Yanga qoidasi[8] bo‘yicha 1382-yilda akasi Jahongir Mirzoning xotini Xonzodani nikohiga olib otasi va akasiga singari Ko‘ragon[9] nisbasi bilan sharaflangan. 1393-yilda Amir Temur unga Shimoliy Eron, Iroq, Kavkazortini idora qilishga topshirdi. Poytaxtini Ozarbayjondagi Sultoniya shahri qilib belgilagan. 1396-yil kuzida ovda otdan yiqilib shikastlanadi va Xondamir ma’lumot berishicha, shundan so‘ng, uning ruhiyatida o‘zgarish sodir bo‘ladi. Mironshoh shundan so‘ng aysh-ishratga berilib, davlat ishlariga qaramay qo‘yadi

[5] غياث الدين بن همام الدين حسينى خواندمير تاريخ حبيب السير فى اخبار افراد بشر فهرست مركز تحقيقات رايانهاي قائميه اصفهان
[6] Muiz ul-ansobda Umarshayx Mirzoning onasi Tuman Og‘o deb qayd etilgan.
[7] **Файзиев Т.** Темурийлар шажараси. / Масъул муҳаррир А.Самад. – Тошкент: Ёзувчи, – Хазина. 1995.– Б. 84.
[8] **Yanga qoidasi** – levirat usulli nikoh. Aka vafot etsa uning xotini ukaning nikohiga o‘tishi hodisasi. Turkiy xalqlar tarixida ko‘p uchraydigan hodisa ekanligini bevosita temuriylar davlatida ham “levirat” usulli nikoh ko‘p hollarda amalga oshirilgan. Dunyoning turli jamiyatlarida amalga oshirilgan ushbu nikoh turi turklarda to Hunlar davridan ya’ni, mil.avv. III asrdan boshlagan. Turkiy xalqlarda “levirat”ning amalga oshirilishi boshqa xalqlardan farqi mavjud ekanligini ya’ni, agarda ota vafot etsa, o‘g‘il farzand o‘gay onasi bilan nikoh qura olishida edi. Ammo turklarning islom dinini qabul etishlari bilan o‘gay onasi bilan nikoh qurish odati tark etilgan.
[9] **Ko‘ragon** – mo‘g‘ulcha “kuyov”

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

va davlat xazinasiga katta ziyon yetkazadi. Tarixiy manbalarda Mironshoh Mirzo ikki marta otdan boshi bilan yiqilib jarohatlangani qayd etilgan. 1399-yilda Xonzodaning Samarqandga qochib kelib, Amir Temurga arz qilishi bilan Mironshoh Amir Temur g‘azabiga duchor bo‘ladi va qatliga hukm bo‘ladi. Sayyid Baraka, amirlar va shahzodalarning iltimosi bilan qatldan qutulib qoladi. Amir Temur Mironshohning katta o‘g‘li Abu Bakr Mirzoning otasini o‘z yonida qoldirish borasidagi iltimosini bag‘ishlaydi va uni olib Bog‘dodga ketishiga ruxsat beradi. Mironshohga berilgan viloyatlarni boshqarish uning ikkinchi o‘g‘li Umar Mirzoga beriladi. 1408-yil 21-aprelda Mironshoh Mirzo Ozarbayjonning Sardrud mavzeyida turkman Qora Yusuf bilan bo‘lgan jangda asir olinib qatl etiladi va Surxob tumanida dafn etiladi. Bir qancha vaqt o‘tgandan so‘ng Shams G‘uriy degan shaxs darvesh kiyimida Mironshoh suyaklarini olib Movarounnahrga keltiradi va Shahrisabzda dafn etiladi. Tahminan, Abusaid Mirzo davrida Shahrisabzdan Samarqandga Go‘ri Amirga otasining qabri yoniga qayta dafn etiladi. Xotinlari – Xonika Begim, Xonzoda Begim .., O‘g‘illari – Kattasi Abu Bakr Mirzo (1382-1417), (Temur vafot etganda yigirma uch yoshda edi.), Mirzo Umar ibn Mironshoh (1383-1407), Xalil Sulton (1384-1411), Iyjal Mirzo (1395-1415), Suyurg‘atmish (1399-1411) [10].

Shohrux Mirzo (1377-1447) (میرزا شاهرخ**)** – Amir Temurning to‘rtinchi o‘g‘li. 779 yil rabi ul-oxirning o‘n to‘rtinchisi, payshanba kuni (1377-yil 20-avgustda) tug‘ilgan. Onasi qoraxitoy urug‘idan Tag‘oy Turkon Og‘odir. “Habib us-Siyar” asarining Isfahon fixristida (موجب طغاي تركان آغا كه از قوم قراختاي بود و ميرزا شاهرخ از وي تولد نمود) “Mujib Tag‘oy Turkon Og‘oke az qavmi Qoraxitoy bud va Mirzo Shohrux az vuyi tavalud manud.”[11] Shohruh Mirzo[12] yigirma yoshigacha otasining yonida bo‘lib, uning harbiy yurushlarida, jumladan Falastin yurushida qatnashadi. 1397-yilda unga Amir Temur Xuroson, Seyiston va Mozandaron hokimligini topshiradi. Shundan to 1405-yilgacha u Xuroson hukmdori nomi bilan

[10] **Файзиев Т.** Темурийлар шажараси. / Масъул муҳаррир А.Самад. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – Б. 54.
[11] غياث الدين بن همام الدين حسينى خواندمير تاريخ حبيب السير فى اخبار افراد بشر فهرست مركز تحقيقات رايانهاي قائميه اصفهان
[12] “Muiz ul-ansob”da Amirzoda Shohrux Bahodirning onasi Amir Shamsiddinning qizi Dilshoq Og‘o shaklida ma’lumot qayd etilgan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

kifoyalangan. 1405-1447-yillarda Amir Temurdan so‘ng, davlatni qayta birlashtirib boshqardi. Xotinlari – Gavharshodbegim, Mulkat Og‘a Begim, To‘tibegim…, O‘g‘illari – Muhammad Tarag‘ay (Mirzo Ulug‘bek), Ibrohim Sulton, Boysung‘ur Mirzo, Suyurg‘atmish Mirzo, Muhammad Jo‘ki Mirzo, Jon O‘g‘lon va Yardi Mirzo.

Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarda quyidagilarni keltiradi: “Xoqoni Said Shohrux Mirzo kim, avlodi va amjod orasida sohibqiron otasining qoyim maqomi bo‘ldi. Ham nazmg‘a mashg‘ulluq qilmas erdi, ammo xub bayt va yaxshi so‘zlar ko‘p ul hazratdin ham voqe’ bo‘lur erdi. Muni ham bir naql bila ixtisor qililur. Bu faqiri haqir Bobur Sulton muborak tilidin mundoq eshittimkim, bir majlisda akobir sari boqib Shohrux Mirzodin naql qildilarkim, ustod Qivomiddin me’morg‘a bir imorat jihatidin e’tiroz qilib, bir yil mulozamatdin mahrum ekondur. Yil boshida taqvim istixroj qilib bu vasila bila shoyad Mirzoning muborak dindorin ko‘ra olg‘aymen deb eshikka kelib, sudurni vosita qilib, oni sudur ko‘rguzub taqvimin arz qilibturlar, Mirzo tabassum qilib bu baytni o‘qubdurlarkim:

Tu kori zaminro naku soxti

Ki, bo osmon niz pardoxti ” [13]

Jahonshoh Mirzo – Amir Temurning Joku Barlosning qizi Turmush og‘o bilan nikohidan tug‘ilgan ikkinchi o‘g‘il farzandi edi[14]. Ikki juftlikning jami ikki o‘g‘il (Muhammad Jahongir va Jahonshoh) va bir nafar qiz (Tag‘oyshoh Og‘abegi) farzandlari bo‘lgan. “Muiz ul-ansob” asarida esa uning onasi qonchg‘on qabilasidan deb qayd etilgan. Aslida Jokubekning qizidan tug‘ilganligi ehtimol. Balki barloslarning qonchg‘oy nomli urug‘idan bo‘lganligiga ishora ham bo‘lishi mumkin. Jon Vuds[15] o‘z tadqiqotida Jahonshohni Jahongir mirzo bilan bir onadan tug‘ilganini da’vo qiladi. Jahonshoh 5 yoshligida vafot etgan.

[13] **Ғаниева С.** Мажолис ун-нафоисга изоҳ ва таржималар. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 13 том. –Тошкент: Фан, 1997. – Б. 99.
[14] Telegram kanal: @temuriylarshajarasi. 24.12.2025
[15] John E Woods (1990). The Timurid Dynasty, Papers on Inner Asia No. 14, Research Institute for Inner Asian Studies, Indiana University, Bloomington.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Tadqiqotimiz davrida Sohibqiron Amir Temurning **Sulton Ibrohim Mirzo** ismli farzandi haqida ma'lumotlarga duch keldik. Va u haqidagi "Muiz ul-ansob" asarida keltirilgan ma'lumotlar bilan qiziqdik.

Sulton Ibrohim Mirzo (1384-1391) – hijriy 786 yilda / milodiy 1384-yilda Samarqandda tug'ilgan. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sida amirzodaning tavalludi haqida quyidagicha ma'lumot keltiradi: "Seyiston va Zobuliston viloyati musaxxar bo'lg'onidin so'ng, muholiflardin hech kishi ul viloyatlarda qolmadi. Ko'ngli jam bo'lub, Qandahor viloyatini Sayfal Barlosqa berdi va Tumanning elini Sayfal Nikudariyga berdi. Ul qish Jakubek rahmati Haqqa borib erdi, aning yerini Jahonshohkim, Jakubekning o'g'li erdi, (anga berdi). Va cherikni ijozat berib, o'zi saodat va iqbol bila kechayu-kunduz surub, o'n to'rt kunda Samarqandda tushti. Samarqandning akobiru ashroflari o'truv chiqib, peshkashlar bila hazrat diydoriga musharraf bo'lub, shukronalar berdilar. Bu mahalda hazrat Jabbor inoyatidin sohibqirong'a o'g'ul bo'lub, sevindi va ul o'g'ulni Sulton Ibrohim ot qo'ydilar va ulug' to'ylar qilib, ayshu ishrat qildilar. Va uch oy Samarqandda o'lturub, farog'at va komronliq bila o'tkurdi"[16]. "Muiz ul-ansob"da amirzodaning onasi To'qmoqlik[17] Hond Mulk ismli kanizak ekanligi qayd etilgan. Nasabnomada Sulton Ibrohim Mirzoning yetti yoshda vafot etgani yozilgan. Agar Sharafiddin Ali Yazdiyning, Sulton Ibrohim Mirzoning tavalludiga oid ma'lumotdan kelib chiqib, hisoblasak mirzo milodiy 1391-yilda yetti yoshda vafot etgani ma'lum bo'ladi.

XULOSA

Amir Temurning oilaviy nasl-nasabi temuriylar saltanatining asosi bo'lib, uning mashhur to'rt o'g'li davlat boshqaruvida muhim rol o'ynagan. Biroq, Jahonshoh va Sulton Ibrohim kabi kam ma'lum farzandlarning erta vafotlari ularni tarix sahifalarida soyada qoldirgan. "Muiz ul-ansob" va "Zafarnoma" kabi manbalar bu amirzodalar haqida qimmatli ma'lumotlar saqlab qolgan bo'lib, ular

[16] **Шарафуддин Али Йаздий.** Зафарнома: Мовароуннаҳр воқеалари: (1360-1370) // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрл.: А. Аҳмад, Ҳ.Бобобеков; Масъул муҳаррир Б.Эшпўлатов; Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шоғуломов ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б 102.

[17] **To'qmoq** – Jo'ji ulusi, Dashti Qipchoq.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Temurning oilaviy hayotini to‘ldiradi. Ushbu tadqiqot Amir Temurning farzandlari haqidagi ma’lumotlarni kengaytirib, temuriyshunoslikka yangi nuqtai nazar taqdim etadi. Kelgusida batafsil izlanishlar orqali Temuriylar sulolasining to‘la shajarasi yanada ravshanlashishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Шомий Низомиддин. Зафарнома / Форс тилидан ўгирувчи Ю. Ҳакимжонов; Таржимани қайта ишлаб нашрга тайёрл. ва масъул муҳаррир А. Ўринбоев. Изоҳлар ва луғатларни тузувчи Ҳ.Кароматов (географик номлар изоҳи О. Бўриевники). Ҳофизи Абрунинг “Зафарнома”га ёзган “Зайл”и − (“Илова”)ни форсийдан ўгирувчи ва изоҳларни тузувчи О. Бўриев. − Тошкент: Ўзбекистон, 1996. − 528 б.
2. Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома: Мовароуннаҳр воқеалари: (1360-1370) // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрл.: А. Аҳмад, Ҳ.Бобобеков; Масъул муҳаррир Б.Эшпўлатов; Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шоғуломов ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.
3. Хондамир Ғиёсиддин. Ҳабиб ус-сияр фи ахбори афроди башар: (Башар аҳли сийратидан хабар берувчи дўст) / Форс тилидан таржима, муқаддима муаллифлари Ж.Ҳазратқулов, И. Бекжонов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 1271 б.
4. Натанзий Муиниддин. Мунтахаб ут-таворихи Муиний: (Муиний тарихлари танланмаси) / форс тилидан тарж., сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ғ.Каримий; маъсул муҳаррир А.Ўринбоев. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 264 б.
5. Му'изз ал-ансаб (Прославляющее генеалогии). / Введение, перевод с персидского языка, примечания, подготовка факсимиле к изданию Ш. Х. Вохидова – Алматы: “Дайк-Пресс" 2006. – 119-120 б.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

6. Файзиев Т. Темурийлар шажараси. / Масъул муҳаррир А.Самад. – Тошкент: Ёзувчи, 1995. – 184 б.
7. John E Woods (1990). Timur's Genealogy. Intellectual Studies on Islam. University of Chicago, Chicago, Illinois. 24 pp.
8. John E Woods (1990). The Timurid Dynasty, Papers on Inner Asia No. 14, Research Institute for Inner Asian Studies, Indiana University, Bloomington.
9. John E Woods (1987). The Rise of Timurid Historiography. Journal of Near Eastern Studies 48, pp. 81–108.